

**MATN USTIDA ISHLASH-MATN YARATISH KO‘NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH VA MUSTAHKAMLASH OMILI**

**Yo‘ldosheva Shohista Baxtiyor qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi
Allayorova Orzugul
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim
Boshlangich ta’lim yo‘nalishi talabasi**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqoladan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va oliy ta’lim bituruvchi kurs talabalari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda matn tuzish ko‘nikmalarini rivojlantishda va nutqini o‘sirish maqsadida foydalanishi mumkun.

АННОТАЦИЯ

Данная статья может быть использована учителями начального образования и студентами выпускных курсов высшего образования в целях развития навыков построения текста у младших школьников и развития их речи.

ANNOTATION

This article can be used by teachers of primary education and students of the graduating course of higher education for the purpose of developing text-making skills and growing their speech in students of a small school age.

KALIT SO‘ZLAR

Milliy mafkura, intellektual salohiyat, o‘quv materiallari, idrok, zehn, tafakkur, o‘yin texnikasi, faollik, matn yaratish, kompetensiya, motiv, tafakkur, pedagogik texnologiya.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Национальная идеология, интеллектуальный потенциал, учебный материал, восприятие, разум, мышление, игровые приемы, активность, создание текста, компетентность, мотив, мышление, педагогическая технология.

KEY WORDS

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

National ideology, intellectual potential, educational materials, perception, mindfulness, thinking, game techniques, activism, Text creation, competence, motive, thinking, pedagogical technology.

Garchi azim daraxt bo‘lsa til,
Matn- unda yaralgan hosil.

Millat tafakkurini rivojlantiruvchi, undagi milliy mafkura, ma’naviy barkamollik, intellektual salohiyatni ko‘rsatib turuvchi asosiy mezon-tildir. Til barqaror hodisa, nutq esa beqaror- vaqtinchalik, u alohida shaxsning muayyan makon va zamondagi individual-intellektual kursatkichlari: ilmiy-ijodiy tafakkuri, aloqa-aratashuv, ijtimoiy-siyosiy extiyojlarini kafolatlovchi, xususiy muloqot, ta’sir va aks ta’sir natijasini voqealantiruvchi bosh vosita sanaladi. Insoniyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish uchun birdan—bir, imkoniyat - matn va matn yaratish ilmi bilan shug‘ullanishdir. Demak, til imkoniyat, matn esa natijadir, til umumiyligi, matn esa xususiyligi bilan farqli, til ijtimoiy muloqot mahsuli, matn-egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar integrasiyasi, hosilasi, individual tafakkur mahsuli, inson yaratikdarining majoziy ramzi, in’ikosidir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida Davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilishi, umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishi, maktab o‘qish va adabiyoti o‘qituvchilar oldiga ulkan vazifalarni quymokda. O‘sayotgan avlodning mustaqil va ijodiy fikr egasi, ixcham va go‘zal nutk, sohibi, nutqiy sharoitni to‘g‘ri baholay oladigan tadbirkor, Vatan taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, ma’naviy barkamol kishilar bo‘lib yetishishini ta’minalash- umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar tizimi o‘qish ta’limining bosh maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qish darsini o‘rganishdan asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san’atidan boxabar, orzaki nutq; hamda matn yaratish ko‘nikmalarini mukammal egallagan, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalab

yetishtirishdan iborat. O‘qishdan Davlat ta’lim standartlari ana shu ta’limiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqsaddan kelib chiqilganda, o‘qish ta’limi:

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

– O‘quvchilarning kuzatish, anglash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, alohidaliklarni ajratish, qiyoslash va tasnif qilish layoqatini, mantiqiy tafakkur darajasini o‘stirishga;

- O‘quvchilarning o‘zligini, moddiy borliqni, voqeа-hodisalarни, milliy tilning ifoda vositalari orqali idrok etish, hamda o‘z fikri, dunyoqarashi, his-tuyg‘ularini mazkur til imkoniyatlaridan foydalanib, to‘g‘ri, aniq, ravon ifodalay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga;

- yosh respublikamizga ilmiy-ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topa biladigan, chuqur bilimli, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis, turkiy lison durdonalari, milliy kadriyatlarimizni e’zoz va ehtirom qiladigan, o‘zbek tilini jaxon miqyosiga olib chiqadigan milliy kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari tizimi o‘qish fani oldiga o‘quvchidagi kommunikativ savodxonlik, nutqiy madaniyat, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda mustaqil va erkin ifodalay olishga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ydi. Buning uchun oqish ta’limi mutaxassislari:

- O‘quvchilarning tevarak-atrofdagi buyum, narsa, hodisalar va ularning ilmiy-ijtimoiy mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirish;

- O‘quvchilarda mazkur buyum va hodisalar orasidagi sabab, shart, oqibat, qarama-qarshi munosabatlar, to‘g‘ri va teskari aloqani aniq farqlash, voqeа hodisalarни analiz va sintez qilish, uni ogzaki va yozma holatlarda nutqiy vaziyat taqazosiga ko‘ra to‘g‘ri va o‘rinli tasnif qila bilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- o‘z fikrini erkin, ravon ifodalay olish, o‘z ilmiy iqtidori, bilimi, ularni amaliyotga joriy etish orqali qo‘lga kiritilgan ijobiy natijalarni (nutqiy mahorat, matn yaratish mahorati) boshqalarga ham yetkaza bilish malakalarini rivojlantirish ustida ishlashlari lozim.

Respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qish ta’limi samarasini oshirish, pedagog hodimlar va o‘qituvchilar jamoasida ilmiy potensialni kuchaytirish, o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlikni, haqiqiy ijodkorlik va izlanuvchanlik ruhiga yo‘g‘rilgan ijobiy-rivojlanuvchi sog‘lom musobaqa muhitini hosil qilish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Xo‘sh, maktab o‘quvchisini o‘quv jarayonining subektiga (ishlovchisi-izlanuvchisi, ixtirochisi), o‘qituvchini esa shu jarayonning boshqaruvchisi (izlanuvchan va ijodkor shaxs)ga aylantirishimiz uchun nima qilishimiz, ishni nimadan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

boshlashimiz, xususan, o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqlni DTS talablariga mos ravishda to‘g‘ri, ravon shakllantirishning qanday usul va vositalaridan foydalanishimiz lozim?

- Avvalo, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 30-50-yillarda shakllanib, to hozirgi kungacha ham davom etib kelayotgan an’anaviy ta’lim tizimidagi eskirgan avtoritar usullardan (o‘qituvchi — tushuntiruvchi, o‘quvchi -bajaruvchi) uzil-kesil voz kechishimiz, ongli verbal-kognitiv ta’limning subekti subekt munosabatlari (o‘qituvchi izlanuvchi-yunaltiruvchi, o‘quvchi izlanuvchi-kashf qiluvchi) ni ta’limga joriy etishimiz;

-til o‘qitish metodikasida eng yangi hisoblangan, zamonaviy didaktik vositalar bilan qurollantirilgan, o‘quvchini izlanish va muammolarni yechishga yo‘naltiruvchi, unda ijobjiy o‘quv motivlarini hosil qiluvchi o‘quv-multimedia dasturlari, elektron o‘quv adabiyotlari bilan modernizatsiyalashtirilgan ongli verbal-kognitiv ta’lim tizimi (kashfiyat ta’lim tizimi)ga intensiv sur’atda o‘tishimiz;

- metodist olimlarimiz tomonidan tavsiya qilinayotgan tahlim mazmunini takomillashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash sur’atini

jadallashtirish, matn yaratish ko‘nikmalarini mustaxdamlash maqsadida modullashtirilgai xususiy texnologiyalarni yaratishimiz (mas., Uyadosh so‘zlar ystida ishlash orqali o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi..va x.k.);

-o‘qish ta’limi jarayonida matn yaratishga yunaltiruvchi didaktik vositalar: (kompyuter) multimedia INTERNET, elektron pochta xizmatidan foydalanish, yuqori darajaga ko‘tarishimiz;

-muammoli ta’lim va interfaol metodlardan, ta’sir va aks ta’sir usullaridan unimli to‘plamli foydalanishimiz, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi ta’limiy tarbiyaviy, ustoz-shogird munosabatlarini do‘stlik va o‘zaro ijodiy hamkorlik darajasiga olib chiqishimiz;

-berilgan matn ustida ijodiy ishlash bilan boshlangan darsni yangi mustaqil mati yaratish — k a s h f i y o t bilan tugallashga erishishimiz, o‘quvchiniishlovchi, izlanuvchi, kashfiyotchiga, o‘qituvchini esa izlanuvchi

-boshqarushchiga, o‘quvchi iste’dodining xali ochilmagan qirralarani kashf etuvchi, uni muammolar yechimini topish sari yetaklovchi jonkuyar yo‘boshchiga aylintiradi.

O‘qish ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini takminlash so‘z boyligini oshirish, nutqiylarini shakllantirish, o‘quvchini madaniy muqalot

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

san’atidan xabardor qilish, turli mazmun va o‘quvchini madaniy, ma’rifiy, munshaot matnlari, badiiy-ramziy matnlar ustida ijodiy ishlashga o‘gatish, egallangan bilim ko‘nikma malakalar asosida kichik matnlar, manalog va dialoglar tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish va mustakil matn yaratishga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, u ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning eng muhim va zarur omillardan biri sanaladi.

Zero, mustaqil yaratilgan matn - o‘quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqelanishi, tugal bir mazmunning o‘quvchi tomonidan kashf etilishi,yuzaga chiqishidir.

Xulosa qilib aytganda, “matn yaratish” o‘quvchi uchun to‘liq ijodiy izlanish hisoblansa, “matn tuzish” qisman ijodiy izlanishga taalluqli bo‘ladi.

– “Matn yaratish” faoliyati o‘quvchi so‘z boyligi, nutqiy savodxonligi, mustaqil, izchil, o‘rinli fikr ifodalash bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ushbu tadqiqot shu kunning eng dolzarb vazifalaridan biri – umumiy o‘rta ta’lim muassalarida o‘qish ta’limining yangi pedagogik texnologiyalari asosida tashkil etilishni ta’minalash, o‘quvchida mavjud bo‘lgan lug‘at zaxirasi, nutqiy-intellektual qobiliyatini aniqlash,ijodiytafakkur faoliyatini jadallashtirish, o‘quvchida ravon nutq, mintiqiy fikrlash, fikr mahsulini yozma ravishda to‘g‘ri, izchil o‘rinli ifodalsh, egallangan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga bag‘ishlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev „ Yoshlar manaviyatini yuksaltirish va ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus”. „Xalq so‘zi” gaz. – T., 2019. - № 54 (7284).
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017, 104 b.
3. Abdurakov H. Innovatsion texnologiyalar va ularning pedagogik mohiyati. Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy- kasbiy barkamol shaxs tarbiyasi: Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari.- Guliston, 2007, - B.67-69
4. Abdullayeva B.S. Boshlang‘ich ta’lim me’zonlari Boshlang‘ich ta’lim. IMJ.- T., 2017- № 4.- B. 14-16.
- 5 Boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.- Jizzax, 2020.- B. 6-14.